



DUNYONI LOL QOLDIRGAN USMONIYLAR IMPERIYASI TARIXI

Abdiyeva Setora Ilyos qizi

QarDU talabasi

" TARIXIY XOTIRASIZ KELAJAK YO'Q "

I . A . KARIMOV

Annotatsiya: Biz tarixni o'rganar ekanmiz, har bir davlat sulola va imperiyaning taraqqiyoti va tanazzulini birga o'rganasiz. Tarix bizga o'tmishdan xulosa chiqarishimiz va o'tmishdagi xato kamchiliklarim takrorlamasligimiz uchun zarurdir . Bugun biz dunyoni larzaga keltirgan uning paydo bo'lishi va rivojlanishi ko'p davlatlarning tarixini o'zgartirgan Usmoniylar davlati haqida fikr yuritamiz. Bu davlatning bosib o'tgan tarixi har bir yangi va rivojlanayotgan davlatga o'rnak bo'loladi. Albatta bu imperiyada ham yutuqlar bilan birga xato va kamchiliklar uchraydi. Shular haqida mulohaza yuritmoqchimiz

Kalit so'zlar: Usmoniylar, Anatoliya, Afsona, haqiqat, Vizantiya, Ertug'rul, Usmon, Bursa, Konstantinopol, O'rxon, Mehmed II, Sulton Salimxon, Sulton Sulaymon

Ko'p yillar davomida Usmoniylarning paydo bo'lishi va ularning XIV asr oxirigacha bo'lgan tarixi kam o'rganilgan. Tarix yaqin davrlargacha faqatgina dushmanlik ruhida bo'lgan grek manbalaridan yoki keyinchalik Usmoniy sultonlarni maqtab yozadigan turk tarixchilari asarlaridan o'rganilgan. Usmoniylar va Yevropa arxivlaridan olingan yangi xujjatlar va ularning tanqidiy analizi Usmoniylarning kelib chiqishini tushunishga yordam beradi.¹ Biz bilamizki, Usmoniylar kelib chiqqan qabila o'g'uzlar ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qabilalar bo'lib, yozda tog'larga ketar edi. Shaharlardan uzoqlarda chodirlarda yashovchi qabilalar O'rta Osiyodan kelgan Saljuqiylardan yoki XIII asr birinchi yarmida mo'g'ullar tomonidan g'arbga keltirilgan turkiy qabilalardan kelib chiqqan. Anatolidagi qabilalarning ilk boshliqlari haqidagi ma'lumotlar juda kam. Ular haqida faqatgina afsona va tarixiy uydurmalar qolgan.² Ishonchli dalillar shuni ko'rsatadiki, Usmoniylar sulolasi nomiga

¹ . Bener E. Turkiye'de para ve kambyo denetimi. Ankara, 1988

²Büyük lug'at ve ansiklopedi. Meydan yayin evi Istanbul 1972.

³ Ferit Develliöglü. Osmanlica-Türkche Ansiklopedik lugat. Ankara 2008



Ertoʻgʻrul asos solgan. Bu haqda Ertoʻgʻrulning oʻgʻli Usmon nomidan zarb etilgan tangalardagi yozuvlar guvohlik beradi. Afsonaga eʼtibor beramiz. Usmoniyning kelib chiqishi haqida turli taxminlar mavjud. Koʻplab yilnomalarda kichik farqlar bilan uchraydi. Ertoʻgʻrul qachondir otasi Sulaymon shoh va ikki akasi, Sunqur Tegin va Kuntugʻdilar bilan Kichik Osiyoga borishadi. Ular u yerda koʻp yillar qolib ketadi va keyin ortga qaytishadi. Ertoʻgʻrulning oʻzi Anatolida toʻrt yuz shatr bilan qoladi. U oʻzining uch oʻgʻlidan biri Sari Yatini Koʻnyadagi saljuqiylar sultoni Alouddinning oldiga ular uchun yer ajratishini soʻrab yuboradi. Taxminan 1260 yilda Alouddin Sakarya daryosi boʻyidagi Soyyutda joy ajratadi va Vizantiyadan himoya qilishni tayinlaydi. 1280 yil Ertoʻgʻrulning oʻlimidan soʻng uning oʻgʻli Usmon beklilik boshiga keladi va tezda greklarga qarshi boradi.³

Ammo Haqiqatga keladigan boʻlsak, Usmoniylik yilnomalarida bu tarix siyosiy maqsadlarda oʻylab topilgani aytiladi. XIV asr boshlaridagi turk vizantiya manbalarini qiyosiy oʻrganish orqali quyidagi dalillarni aniqlash mumkin. XIII asrda turk qabilalari moʻgʻullar zulmidan qutilish uchun Gʻarbga qochishadi. Anatoliya yassi togʻliklarining tub aholisi ularni siqib chiqaradi, ular Koʻnyadagi saljuqiylar sultonligi gʻarbiy chegarasida toʻplanishadi. Yangi yaylovlarni qidirib turk qabilalari chegara hududlarida oʻrnashib olishadi. Yaqinda joylashgan Vizantiya markazlari ularga mahsulotlarini sotish va zahiralarni toʻldirishga yordam beradi. Sangarios (hozirgi Sakarya) daryosi qalʼalar bilan mustahkamlangan hudud boʻlib Vizantiya va turk bekligi oʻrtasidagi chegara hisoblanardi. Boshlanishida turklar va Vizantiyaliklar jiddiy toʻqnashuvlarsiz yashaganlar. Chegaralar oʻtib boʻlarli, musulmonlar va xristianlar bozorlarda bir-birlari bilan aloqalarni mustahkamlab yashar edilar. Aloqalarning rivojlanishiga Vizantiyada yashovchi xristianlikni qabul qilgan turklar oʻz hissalarini qoʻshdilar. Lekin oʻzaro ishonch rishtalari va tinch hayot bir kun nihoyasiga yetishi kerak edi. Toʻqnashuvlardan toʻqnashuvlarga turklarning oʻz kuchiga ishonchi ortib bordi. Usmon boylik orttirishga oʻch boʻlgan, sarguzasht izlovchi va urushlarga tayyor boʻlgan jangchilarni yigʻdi. Qonunshunoslar va ziyolilar Anatoliyani tashlab unga yangi davlat qoʻrinishda yordam berish uchun kelishardi. Usmon bu insonlar jamoasini kerakli oqim boʻyicha harakatlantira oladi va ularni oʻz bayrogʻi ostida birlashtiradi. 1302 yil 27 iyulda Usmon Nikomediya (Izmit) vizantiyaliklar bilan boʻlgan jangda gʻalaba qozonadi. Shundan soʻng Usmon Anatoliyaning shimoliy-gʻarbida beklilikning boshiga keldi. U vizantiyaliklarga qarshi tura oldi va kuchli boʻlgan Germiyon, Karaman, Jondor, Saruxan, Teke va Mentsha kabi qoʻshni turkman



bekliklari bilan kurash olib bordi. XIII asr oxirigacha Usmon Vizantiyaning Vifiniya viloyatining sharqiy qismida nazorat oʻrnatdi. 1317 yil Usmon (1326 yil vafot etgan) qoʻshin boshqaruvni oʻz oʻgʻli Oʻrxonga qoldiradi va Sakarya daryosi vodiysini kechib oʻtib Brusa (Bursa) ostonalarini himoya qiladigan mudofaa inshootlarini egallaydi. Oqibatda 1326 yilda Bursa shahri taslim boʻladi va shu paytda sharqdagi Bolu shahri ham taslim boʻladi. 1326 yildan 1365 yilgacha Brusa (Bursa) Usmoniylar davlatining poytaxti boʻladi. Oʻrxonning xizmatlari shundan iboratki u haqiqatdan Usmoniylar davlatiga asos soldi. U ichki boshqaruv oʻrnatdi: 1327 yildan Usmoniylar tangasi bosila boshlandi, tanganing bosilishi mustaqillikni anglatar edi, haqiqiy armiyaga asos solinishi va uning asosiy qismini yanicharlar-professional askarlardan tashkil topgan sara qism tashkil qilar edi, undan tashqari kavaleriya qayta tashkil etildi. Bunday Usmon armiyasida kofirlar dunyosini egallash kabi diniy mafkuraviy gʻoyalarni koʻrmaslik mumkin emas edi. Bursadagi Shahodat masjididagi yozuvga asosan Oʻrxon Sulton-gʻolib, iymon uchun kurashchi unvonini olgan. Lekin u ortodoksal islomni emas balki koʻplab turkiy qabilaviy urf-odatlarini oʻzida ifoda etuvchi Alaviylik va oʻn ikki imomni eʼzozlovchi oqimga xayrihoh edi.⁴ Oʻrxon va uning valiaxdi Murod I (1362-1389) Vizantiyaga qarshi doimiy va yengilmas urushlar olib bordi: Bursadan soʻng ular Nikeyani/Iznik (1331) va Nikomediyani/Izmit (1337) egallab olishdi. 1354 yil Usmoniylar Dardanelni kechib oʻtib, bir necha yil davomida Gallipolini (1354), Adrianopol/Edernani (1362-1371) egallashdi va bu yerlar asrlar davomida ularning Yevropadagi tayanchi boʻldi. Serblar va bolgarlar ustidan qozonilgan koʻplab gʻalabalar, jumladan, Marisa (1371) yaqinidagi va Kosovo maydonidagi (1389) gʻalabalar natijasida Bolqonning katta qismini egallashdi. Keyingi muvafaqqiyatli yurishlardan soʻng Makedoniya, Bolgariya va Serbiya ham qoʻlga kiritildi. Yevropadagi har bir urushda bosqinchilik birinchi turar edi. Koʻp xolatlarda bu tinchlik bilan amalga oshirilar va ularning davlati asosini mustahkamlar edi.⁵

1389 yil toʻrtinchi usmoniy hukmdor, Yildirim (Yashin, Chaqmoq) nomini olgan Bayazid I Yevropa va Osiyodagi juda katta hududni meros qilib oldi. Juda katta maqsadlarni oʻz oldiga qoʻygan sulton oʻz davlati hududlarini kengaytirishni xohlar edi. Boshlanishiga u oʻz eʼtiborini sharqqa qaratdi va birin ketin barcha turk yerlarini (Saruxan, Oydin, Mentеше, Hamid, Karaman, Germiyon va Sivas) egallab, butun Anatoliyani oʻziga boʻysundirdi. Nikopolisda (1369 yil 25 sentabrda)gi Balqonni ozod qilishga kelgan salbchilar ustidan qozonilgan gʻalaba uning oʻziga boʻlgan ishonchni orttirdi. Lekin u Temur bilan boʻlgan Anqara jangida (1402 yil 20 iyul) yengiladi va asrga tushadi. Hududlari



boʻlinib ketgan Usmoniylar davlati Bayazidning toʻrt oʻgʻli oʻrtasida taxt uchun kurash maydoniga aylanadi. Faqatgina 1413 yil Mexmed I oʻz aka-ukalari ustidan gʻalaba qozonishga muvaffaq boʻlgach, u va uning avlodlari koʻplab qoʻzgʻalon va isyonlarni bostirishiga toʻgʻri keladi. Mexmed I ning yeng muhim maqsadi davlatni tiklash va birlashtirish edi. Murod II davrida hududiy bosqinchilik yoʻlidan borib Venesiya, Vengriya kabi Bolqondagi Usmoniylarning dushmanlari ustidan muhim gʻalabalarni qoʻlga kiritdi. Yevropada Usmoniylar Frakiya, Makedoniya, Fessaliya, Dobruja, Bolgariya va Serbiyaning bir qismini nazorat qilar edi. Vizantiya Konstantinopolning chegaralari va uning atrofigacha, shuningdek Moriyagacha qisib qoʻyilgan edi.⁶ Anatoliyada Smirna (Izmir), Sinop va Trapezundgina (Trabzon) Usmoniylarga boʻysunmas edi. 1451 yil Mexmed II oʻz otasi Murod II dan taxtni qabul qilib olganda imperiya oldingiday ikkiga boʻlingan edi. Qadimiy musulmonlar yerlari — Anatoliya Yaqin Sharq Islom sivilizatsiyasining bir qismiga aylangan edi. Yaqindagina qoʻlga kiritilgan Rumeliya avvalgi taassurotlari va chegara hududi aholisi urf-odatlarini, shuningdek eklektik din va qalandarlik afsonalari bilan yashar edi. Ularning orasida Bursadagi eski poytaxt va Edernadagi yangi poytaxt koʻprik vazifasini oʻtashi kerak edi. 1453 yil 29 mayda sultonning taxtga kelishidan ikki yil oʻtib, qamalning boshlanganiga 7 hafta boʻlganida, yanicharlar Konstantinopolning qalʼa devorlarini shturm qilishga kirishdi. Koʻplab shaharliklar jang maydonida xalok boʻlishdi. Muqaddas Sofiya ibodatxonasi gumbaziga Usmoniylar bayrogʻi oʻrnatildi. Xristian Yevropasida bu voqea katta shov-shuvga sabab boʻldi. Usmoniylar imperiyasining gullab-yashnashi Mexmed II ning hukmronligidan (1451) Sulaymon Qonuniy (1566) hukmronligining oxirgi yillariga toʻgʻri keladi. 100 yil davomida Usmoniylar imperiyasi butun Bolqon Yevropasi, Markaziy Yevropaning bir qismi, Arab Yaqin Sharqi va Shimoliy Afrika (Marokashdan tashqari) hududlariga tarqaldi. Bu davr intellektual fikrlarning oʻsishi, sanʼat va badiiy ijodning rivojlanishi, shuningdek koʻplab sulton masjidlarining barpo etilishi bilan ajralib turadi. Asosiysi shundaki, Sulton barcha savdo yoʻllarini nazorat qilar edi: Hind dengizidan Kaspiy dengizi yoki Fors koʻrfazi orqali oʻtib, savdo yoʻllari Arab dunyosidan Oʻrta Yer dengiziga chiqar edi. Keyin Davlat poytaxti va Gʻarbiy Yevropaga yoʻl olar edi. Yevropa shu davrga kelib Keyptaun orqali raqobatchi boʻlgan savdo yoʻlini ochishga ulgurmagan edi. Savdo imperiyani juda katta resurlar bilan taʼminlar va bu daromad hududiy bosqinchiliklardan keladigan boyliklarga qoʻshilar edi. Bu davrning buyuk muvafaqqiyati 1453 yil 29 mayda Mexmed II (Fotix) tomonidan Konstantinopolni olinishidir. Bu shaharga egalik qilish sultonga Yevropa va Osiyo



oʻrtasidagi yetishib boʻlmas bogʻichni va Vizantiya imperiyasining vorisi maqomini berdi. Shuningdek, diniy jihatdan islomning xristianlar ustidan gʻalabasini anglatar edi. Sulton musulmon dunyosida katta mavqega ega boʻldi. XVI asr boshlarida Usmoniylar imperiyasi hududlari uch yoʻnalish boʻyicha kengayib bordi:

- sharqda, Usmoniylar armiyasi Salim I Yovuz (1512-1520) fors Safaviylarini Chaldiron kengliklarida (1514 yil 23 avgustda) yengadi: sharqiy Anatoliya va Ozarbayjon Usmoniylar hukmronligi ostiga oʻtadi.
- janubda, Usmoniylar imperiyasining shiddatli janglari oqibatida

Misr, Suriya va Arabiston gʻarbida ikki asr hukmronlik qilgan Mamluklar saltanati egallanadi. Keyin oʻzining yangi yerlaridan foydalanib oʻz hukmronligini yoki turli yoʻnalishlar boʻyicha nazoratini kengaytiradi: gʻarbda Shimoliy Afrikada Morokash chegaralarigacha, janubda Arabiston va Afrikadagi Qizil dengizning ikki qirgʻogʻi boʻylab, sharqda Hind dengizi, keyinroq Iroqda va u Fors koʻrfazini egallaydi. Bundan keyin Usmoniylar imperiyasi islomning ikki muqaddas shahri Makka va Madina i islomning yuragini bosib olgan edilar.⁷ Salim I ga Halabda boʻlgan juma nomozi paytida (1516 yil 28 avgustda) ikki muqaddas shahar xizmatchisi unvoni beriladi. Halifa sifatida uning nomi qutbaga qoʻshib oʻqiladi. Sulton Salim I davridan boshlab imperiya xalifalikka aylanadi. Uning davrida mamlakat 32 viloyat va koʻplab vassal davlatlardan iborat boʻladi.⁷

Sulaymon I (1520-1566) ham jahongirlik siyosatini davom ettirdi. shiddatli harbiy yurushlar olib bordi. Mojariston bosib olingach, turklar Venani 1-marta qamal qilishga kirishdi. Polsha va Ukrainaga qoʻshin joʻnatib, 1522 yilda Egey dengizidagi Rados va boshqa orollarni ishgʻol qilgan. Bu yurishlardan 30 yil oʻtgach turklar Malta ham yurish qilishga harakat qilishadi ammo bu harakat muvofaqiyatsizlikka uchraydi. Yevropada esa Sulaymon I Gabsburglar imperiyasi bilan qattiq kurash olib bordi. Bu davrga kelib Usmoniylar yerlari janubda qizil dengizning butun qirgʻoq boʻyicha yerlarini va janubiy Arabistonni bosib oldi. Sharqda esa, qator janglardan soʻng, 1555 yili Eron shohi Taxmaspni tinchlik shartnomasini tuzishga majbur qiladi. Unga koʻra, butun Gʻarbiy Armaniston (Van koʻli havzasi), Gʻarbiy Gruziya va Iroq (Bogʻdod bilan birga) Usmoniylar qoʻliga oʻtdi. Sulaymon I oʻzining 46 yillik hukmronligi davrida 13 marotaba harbiy yurishlarda ishtirok eting, shulardan 10 tasi Yevropada olib bordi. Turklarning dengiz floti XVI asrda butun oʻrta dengiz havzasini nazorat qilib turgan. XVI asrning I yarmida turk armiyasi uyushtirgan yirik bosqinchilik yurishlari, uni katta harbiy kuchga ega ekanligini tasdiqlaydi. Bu davrda Usmoniylar imperiyasi



aholisi 25-30 mln kishini tashkil etgan. Sharqdan G'arbgacha 7 ming km, Shimoldan janubgacha 5 ming km va hammasi bo'lib, taxminan 8 mln km² yerni egallab turgan. Turk manbalarida aytilishicha Qonunchi Sulaymon I vafot etgan 1566 yili Usmoniylar imperiyasining hududi 14 mln 893 ming km² ni tashkil etgan. Shundan 2 mln km² ga yaqini Yevropada, 4,5 mln km² ga yaqini Osiyoda va qolgan qismi Afrikada joylashgan edi. XVI asr o'rtalarida Usmoniylar imperiyasi 21 ta viloyatga bo'lingan. Sanjaklar soni esa 250 ta edi.

Biroq, XVII asrdan boshlab, sultonlikning harbiy, siyosiy va iqtisodiy qudrati asta sekin tusha boshladi. Bu davrni tarixchilar "Rijot davri" deb atashadi. XVIII asrdan boshlab Usmoniylar imperiyasi birin ketin egallab olgan yerlaridan ayrila boshlaydi. Yevropa mamlakatlari o'zaro ittifoq tuzib, Usmoniylar imperiyasiga qarshi kurashga chog'landilar. Vena atrofida bo'lgan ikki jangda turk qo'shini Avstriya, Olmoniya, Polshaning birlashgan armiyasidan yengilgan. Muntazam davom etgan. Fors qo'ltig'idagi El-xasa [1792], Karbalo [1801], Makka va Madina [1803-1806] ni egallab, turklarga qarshi qirg'in uyushtirgan.

Salim III va Mahmud III hukmronliklari davrida saltanatni parchalanib ketishdan saqlab qolish uchun islohatlar o'tkazilgan. Sulton Abdulmajid yana islohotlar (tanzimat) o'tkazish (1839) orqali bir tomondan sultonlik inqirozini to'xtatishga, ikkinchi tomondan, yangi turk ziyolilarini (ular o'zlarini yangi usmoniylar deyishgan) shakllantirishga muvaffaq bo'ldi. BU paytda bo'lgan Qrim urushida Turkiya o'zining eski raqibi Rossiya imperiyasi ustidan g'olib chiqdi hamda Qora dengiz va Dunay daryosidagi mavqeyini tikladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Usmoniylar davlati qisqa vaqt ichida buyuk bir imperiyaga aylanadi. Davlat nafaqat dunyoni zabt eta boshladi balki, fan madaniyat din rivojlanishiga ham o'z hissasini qo'shdi. Ulug' davlat arboblari din ulamolari buyuk sarkarda dono va oqil hukmdor shu suloladan yetishib chiqdi. Bu davlat Islom dini yoyilishiga katta hissa qo'shdi. Mamlakat hukmdorlarining ko'pchiligi adolatli siyosat olib bordi. Ayniqsa, Mehmed II, Salimxon I, Sulaymon I davrida fan va madaniyat san'at yuqori darajada rivoj topdi. Davlat tez suratda taraqqiy etdi. Dunyoning eng buyuk va shonli sulolalaridan biri bo'ldi. Vaholanki, dunyoning boshqa bir burchagida Arab xalifaligi, Xulakular davlati Oltin o'rda xonligi va Temuriylar saltanati kabi buyuk davlatlar dunyoni turli burchaklarini boshqarayotgan edilar. Aynan Ularni eslar ekanmiz ular bilan birga Usmoniylar imperiyasini ham qo'shib eslaymiz. Chunki bu davlat tarixda o'chmas nom qoldirdilar. Yana shuni aytish joizki bu sulola vakillari o'zlarini har kimdan ustun hisoblashgan. Hukmdorlari o'zlarini Ollohning yerdagi soyasi deb hisoblashgan. Har bir buyuk davlatning taraqqiyoti bo'lgani kabi tanazzulga ham albatta bo'ladi



. Usmoniylar davlati tanazzuli XVII asrga to'g'ri keldi . Buning sababi hukmdorlarning kuchsizlanishi va ayollar hokimiyatni boshlanishi edi .

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Bener E. Turkiye□de para ve kambyo denetimi. Ankara, 1988
- 2 Búyúk lug'at ve ansiklopedi. Meydan yayın evi Istanbul 1972.
- 3 Ferit Devellióǵlı. Osmanlica-Türkche Ansiklopedik lugat. Ankara 2008
- 4 Asiroǵ'lu, o'rhan gäyi tarihin şahitleri dizisi burak yayinevi. Istanbul 1992.
- 5 Finkel, caroline Osman's dream: the history of the Ottoman empire ... basic books, 2007.
- 6 Berkeley,ca; the construction of the Ottaman State Unversity of california press 1995.
- 7 Kafadar, cemel between tho worlds 1995
- 8 Sh. Ergashev. Jahon tarixi (Yangi davr).
- 9 Stephen turnbull, the Ottoman Emperi 1326-1699, ESSENTIAL histories 2003